



UDK: 342.72

Mafura INAGAMOVA,

Toshkent davlat transport universiteti kafedra mudiri, PhD, dotsent

ORCID: 0000-0002-1600-305X

E-mail: inagamova85@mail.ru

Toshkent davlat transport universiteti professori v/b A.Kasimova taqrizi asosida

AYOLLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA DAVLAT VA NODAVLAT TASHKILOTLAR HAMKORLIGI: QONUNCHILIK VA AMALIYOT

Аннотация

Maqolada mamlakatimizda ayol huquqlarini amalga oshirishda davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan tashkiliy-huquqiy ishlarni tadqiq qilish orqali, kelajakda aholi o'rtasida ayol huquqlarini ta'minlashda davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini yanada rivojlantirish uchun qanday choralarni amalga oshirish zarurligini ilmiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ayol huquqlari, davlat tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari, qonunchilik, targ'ibot ishlari, monitoring va tahlil.

СОТРУДНИЧЕСТВО ГОСУДАРСТВЕННЫХ И НЕПРАВИТЕЛЬСТВЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ЗАЩИТЕ ПРАВ ЖЕНЩИН: ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО И ПРАКТИКА

Аннотация

В данной статье раскрывается научно-теоретический анализ деятельности государственных, а также негосударственных некоммерческих организаций, направленных на воплощение в жизнь правового статуса женщин в нашей стране.

Ключевые слова: права женщин, государственные организации, негосударственные некоммерческие организации, институты гражданского общества, законодательство, мониторинг и анализ.

COOPERATION BETWEEN STATE AND NON-GOVERNMENTAL ORGANIZATIONS IN PROTECTING WOMEN'S RIGHTS: LEGISLATION AND PRACTICE

Аннотация

This article provides a scientific and theoretical analysis of the activities of state and non-governmental non-profit organizations aimed at implementing the legal status of women in our country.

Keywords: women's rights, state organizations, non-governmental non-profit organizations, civil society institutions, legislation, monitoring and analysis.

Kirish. Yangi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlanishi, ularga jamiyat hayotida ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratishi belgilangan. Mazkur normalarni tatbiq etish, eng avvalo, davlat va nodavlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatlari institutlari o'rtasidagi hamkorlikni joriy etish hamda uni tizimli rivojlantirishni taqazo etadi.

Ayollar huquqlarini ta'minlashda davlat va nodavlat tashkilotiga ajratish asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Shu o'rinda davlat tashkilotlariga Markaziy muassasalar, Vazirliklar, Davlat qo'mitalari, Inspeksiyalar, Agentliklar, Qo'mitalar, Markazlar, Mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar va nodavlat notijorat tashkilotiga esa jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotlari hisoblanadi.

Ayol huquqlarini amalga oshirishda jamiyat siyosiy tizimining ikki muhim elementlari hisoblangan davlat va nodavlat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik, uning tashkiliy-huquqiy, institutsional mexanizmlarining samarali ishlashi mamlakat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi yillarda nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyoda nodavlat tuzilmalarning soni va sifat ko'rsatkichlari,

ularning insoniyatga, ayniqsa ayol huquqini amalga oshirishda davlat organlari bilan hamkorligi kuchayib bormoqda.

Hozirgi kunga kelib barcha mamlakatlardagi ayol huquqlarini amalga oshirishga ixtisoslashtirilgan nodavlat tashkilotlarning soni bir necha 10 milliondan ortib ketdi. Ayniqsa rivojlangan davlatlarda ularning soni jadallik bilan ortib bormoqda. Masalan, AQShda 1,5 mln, Fransiyada 1,2 mln, Janubiy Koreyada 13,9 ming, Yaponiyada 49 mingdan ortiq nodavlat tashkilotlari ro'yxatga olingan[1].

Dunyoda nodavlat notijorat tashkilotlari «uchinchi sektor» sifatida jamiyat hayotidagi ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va madaniy-ma'rifiy muammolarni hal qilish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish orqali «ezgu boshqaruv» konsepsiyasini amalga oshirish, BMTning 2030 yilgacha erishilishi lozim bo'lgan 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlari va ularga bog'liq bo'lgan 169 vazifalarni bajarishda davlatga asosiy ko'makchi sifatida belgilangan[2].

Mamlakatimiz miqyosida 300 dan ortiq xotin-qizlar sohasidagi nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyat yuritadi. Shu bois, shiddatli islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi davrda davlat va nodavlat tashkilotlari hamkorligini samarali tashkil etish, uning huquqiy asoslarini zamonaviy yondashuvlar, innovatsion g'oyalarni asosida rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega.

Bu orqali, birinchidan, ayollar va ularning oilalarini ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlanadi; ikkinchidan, ayollarga nisbatan sodir etilgan turli tayziq va zo'rvonlik holatlariga

nisbatan murosasiz kurashib, mazkur salbiy holatlarni sodir etgan shaxslar jazolanishi ta'minlanadi; uchinchidan, ayollar salomatligi, ayniqsa onalar o'limi holatlari kamayishiga erishiladi; to'rtinchidan, ayollar bandligi ta'minlanadi, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va fermerlik rivojlanadi; beshinchidan, ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi oshadi natijada mamlakatda umumfarovonlikka erishiladi.

Bir qarashda, nohukumat tashkilotlari hodisasi zamonaviy dunyoning yangi tendensiyasi bo'lib tuyulishi mumkin. So'nggi yillarda bu tashkilotlarning soni keskin oshib, hukumatlararo tashkilotlar sonidan o'n baravar ko'paydi va ko'pincha ularning maqsad va yo'nalishlari bilan uyg'unlashdi. Ularning tezkor rivojlanishi va global miqyosdagi ta'siri jamiyat hayotida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda[4].

Biroq, masalaga chuqurroq nazar tashlasak, nohukumat tashkilotlari g'oyasi aslida butunlay yangi emas. Chunki notijorat va xayriya tashkilotlari azaldan insoniyat tarixida muhim rol o'ynab kelgan. Ular jamiyat ehtiyojlariga javob berish, adolat va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida yuzaga kelgan va rivojlangan. Diniy e'tiqod, hamjihatlik, o'zaro yordam va fidoyilik kabi ezgu tamoyillar asosida shakllangan ushbu tashkilotlar qadimdan mavjud bo'lib, bugungi kunda yanada keng qamrovga ega bo'lib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). A.M. Miller ta'kidlashicha, nodavlat tashkilotlar butun dunyoda ayollar huquqlarini himoya qilish va ilgari surishda hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Ular gender kamsitish, ayollarga nisbatan zo'ravonlik va tenglikka to'sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etish uchun targ'ibot, maxsus dasturlar va tashabbuslar orqali faoliyat yuritadi. NNTlarning asosiy vazifasi — gender tengsizligi muammolarini yoritish, ayollar huquqlarini himoyalovchi qonun va siyosatlarni ilgari surish hamda jamiyatda ongli o'zgarishlarni shakllantirishdir. Shuningdek, davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilib, gender masalalariga oid qarorlar qabul qilish jarayonlarida ham faol ishtirok etadi.

Nodavlat tashkilotlar xalqaro miqyosda ham muhim o'rin tutadi. 1995-yilda Pekinda o'tgan To'rtinchi Butunjahon Ayollar konferensiyasida ular gender tenglikni targ'ib qilishda yetakchi kuch bo'lgan. Bundan tashqari, NNTlar davlatlarning ayollar huquqlari borasidagi majburiyatlarini bajarilishi ustidan xalqaro monitoring olib boradi.

Mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqot olib borayotgan B. Narimanovning fikricha, nodavlat notijorat tashkilotlari yangi O'zbekistonda demokratik islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki ko'lamini kengaytirish, jamiyat va davlatning o'zaro yaqin hamkorligini o'rnatishda hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Sh.Nazarovning fikricha, har qanday jamoat tashkiloti ijtimoiy va eng avvalo, huquqiy normalarga asoslanadigan tashkiliy birlik sifatida namoyon bo'ladi. Jamoat tashkilotlari ongli ravishda tizimlashgan ichki tashkiliy munosabatlar yig'indisi va ijtimoiy voqelikka maqsadga muvofiq tarzda ta'sir etish uchun zarur bo'lgan tashkiliy usullarning butun bir kompleksiga ega bo'lgan institut sifatida maydonga chiqadi[6].

Demak, nodavlat tashkilotlarining ayol huquqlarini amalga oshirishdagi mazkur faoliyati global fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga hissa qo'shadi va transmilliy siyosiy jarayonlarning baholanishida yuqori mezonlarni belgilaydi.

So'nggi yillarda davlat organlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar liberallashtirish tendensiyasi davom etayotganligini kuzatishimiz mumkin[7].

Xususan, qonuniylik va huquqiy asoslar: Mamlakatimiz Konstitutsiyasining XIII bobi "Fuqarolik jamiyati institutlari" deb nomlanib, uning 69-moddasida

"Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborotvositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi", deb mustahkamlandi. Asosiy Qonunning 72-moddasida esa "Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga jamiyat hayotida ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratadi. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi".

Tabiiyki, mazkur rahbariy va metodologik ahamiyatga molik konstitutsiyaviy qoidalar asosida yaqin istiqbolda mamlakatimizning butun qonunchilik tizimi modernizatsiya qilinadi. Fuqarolik jamiyati institutlari atamasi O'zbekiston Respublikasining amaldagi 60 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlarida qo'llanilgan. Ularning 20 tasi kodeks va qonunlar, 25 tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, 13 tasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda 4 tasi idoraviy-me'yoriy hujjatlardir.

Aholini xabardor qilish va targ'ibot ishlari: 1991-yilda mamlakatimizda hammasi bo'lib 100 ta NNT faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, O'zbekistonda jami ro'yxatdan o'tgan nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning hisobga olingan bo'linmalarining soni 2020-yil 1-yanvar holatiga 10 462 ta, 2023-yil 27-yanvar holatiga ko'ra 8 922 ta hamda 2024-yilning dekabr holatiga ko'ra O'zbekistonda 10 000 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) faoliyat yuritmoqda. Respublika miqyosida 300 dan ortiq xotin-qizlar sohasida NNTlar faoliyat yuritadi, ulardan 15 dan ortig'i Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tkazilgan[8].

Biroq, nodavlat notijorat tashkiloti tushunchasi aholi o'rtasida keng qo'llanilmaydi. Keng jamoatchilik o'rtasida o'tkazilgan so'rovdan kelib chiqib, aytish mumkinki, mazkur institutning asosiy faoliyatidan aholining faqat muayyan qatlamigina xabardor. Masalan, o'tkazilgan so'rovlar shuni ko'rsatmoqdaki, jamoatchilikdan (jami 186 ta ishtirokchi) "NNTlarini bilasizmi?" deb so'ralganida ishtirokchilarning 62 % (116) "ha" deb javob bergan bo'lsa, 38 % (70) ular haqida ma'lumotga egamasligi, biroq eshitganligi haqida fikr bildirgan.

O'tkazilgan so'rov jarayonida, O'zbekiston Respublikasida (sizning viloyat/tuman yoki shahar) faoliyat olib borayotgan sizga ma'lum 2-3 ta nodavlat notijorat tashkilotlar nomini yozib berish so'raldi. Ushbu so'rovga 59 foiz javob beruvchilar 1-2 tadan NNT nomlarini bayon qilgan bo'lsa, qolgan 41 foiz qismi bironta nom keltira olmagan[9].

O'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, nodavlat notijorat tashkilotlarining asosiy yonalishlari reytingi quyidagicha: ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish; bolalar va yoshlar; xotin-qizlar; madaniyat; nogironligi bo'lgan va ularning ijtimoiy moslashuvi; ta'lim; qishloq xo'jaligi va chorvachilik masalalariga oid faoliyat bilan shug'ullanadi.

Shundan kelib chiqib, fikr bildirish mumkinki, jamoatchilik ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatidan ko'proq xabardor bo'lsa, variantlardan biri bo'lgan mehnatkashlarning huquqlarini himoya qilish sohasidagi nodavlat notijorat tashkilotlarini deyarli hech kim tanlamagan.

Ayol huquqlarini amalga oshirishda davlat va nodavlat tashkilotlari hamkorligida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli chora-tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'ida va ijtimoiy tarmoqlarda keng sharhlab borilishini hamda uning mazmun-mohiyati

jamoatchilikka tushuntirib borish mexanizmini yanada takomillashtirish lozim.

Monitoring va tahlil faoliyati: Tahliliy markazlar xalqaro reytingida ("Mozgovyу sentry", Think Tanks) 2016-yilda 182 mamlakat ishtirok etgan. Bunday markazlar dunyoning aksariyat mamlakatlarida faoliyat ko'rsatadi. Pensilvaniya universiteti etakchi tahlil markazlarining "Global Go To Think Tank Index Report 2018" reytingini taqdim etdi.

Reytingda O'zbekistonda 12 ta tahlil markazi mavjudligi, Qozog'istonda ularning soni 31 ta, Qirg'izistonda 28 ta va Tojikistonda 7 ta ekanligi ko'rsatilgan. Turkmaniston reytingga kiritilmagan.

O'zbekistondagi tahliliy markazlar (think tanks) xalqaro reytinglarda umumiy iqtisodiy va siyosiy tahlillar sohasida qayd etilgan. Masalan, Center for Economic Research and Reforms (CERR) O'zbekiston Prezidenti huzuridagi ushbu markaz 2020 yilda "Global Go To Think Tank Index"da Markaziy Osiyo va Kavkazdagi eng yaxshi 10 tahliliy markazlar qatoriga kiritilgan. Yana bir tahliliy markaz Institute for Strategic and Inter-Regional Studies (ISRS) hisoblanadi. O'zbekiston Prezidenti huzuridagi ushbu institut ham xalqaro reytinglarda qayd etilgan bo'lib, mamlakatdagi strategik tahlillar sohasida faoliyat yuritadi[10].

Jumladan, Markaziy Osiyoning eng yaxshi tahlil markazlari reytingida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi 11-o'rinni egalladi. Siyosiy tadqiqotlar markazi 23-o'rinni, Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti 27-o'rinni va "Tahlil" ijtimoiy tadqiqotlar markazi 34-o'rinni egalladi[11].

Shu bilan birga, ayollar huquqlari va gender tenglik bo'yicha maxsus tahliliy markazlar O'zbekistonda hali shakllanmagan.

Biroq, ushbu yo'nalishda faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat notijorat muassasalari mavjud bo'lib, ular tadqiqotlar, tahlillar va qarorlar qabul qilish jarayonlariga hissa qo'shmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda ayollar huquqlarini ta'minlashda davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari hamkorligining huquqiy, institutsional va amaliy jihatlari o'rganishga yo'naltirilgan zamonaviy ilmiy metodlar majmuasidan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini quyidagi yondashuvlar tashkil etadi: Tizimli tahlil Metodi. Davlat va nodavlat tashkilotlari faoliyati, ularning o'zaro hamkorlik mexanizmlari hamda gender siyosati bilan bog'liq institutsional tuzilmalar bir butun tizim sifatida o'rganildi. Bu metod orqali hamkorlikning samaradorligiga ta'sir etuvchi tashkiliy, huquqiy va ijtimoiy omillar aniqlab chiqildi. Qiyosiy-huquqiy tahlil Metodi. O'zbekistonning ayollar huquqlariga oid qonunchilik tizimi xalqaro huquq normalari, XMT konvensiyalari, BMT hujjatlari, boshqa rivojlangan davlatlar tajribasi bilan solishtirildi. Bu orqali milliy amaliyotning kuchli va takomillashtirish zarur bo'lgan

jihatlarini belgilandi. Statistik-analitik metod. Adliya vazirligi, Gender tenglik bo'yicha komissiya, xalqaro tashkilotlar va NNTlar ma'lumotlari asosida ayollar huquqlari, NNTlar soni va faoliyati, gender tenglik dinamikasi bo'yicha statistik ko'rsatkichlar tahlil qilindi. So'rovnom natijalari ham ushbu metod orqali qayta ishlanib, asosiy tendensiyalar aniqlangan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi –bu davlat tashkiloti hisoblanib, ayollar huquqlarini himoya qilish, gender tenglikni ta'minlash va xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan siyosatni amalga oshiradi. Yoki, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati huzuridagi Gender tenglik va ayollar huquqlari bo'yicha komissiya – ushbu komissiya gender tenglikni ta'minlash, ayollar huquqlarini himoya qilish va tegishli qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha faoliyat yuritadi. Civic Initiatives Support Center (CISC) CISC — O'zbekistonda fuqarolik jamiyati tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash markazi bo'lib, ayollar va qizlar huquqlarini himoya qilish, gender tenglikni targ'ib qilish va zo'rvonlikka qarshi kurashish sohasida faoliyat yuritadi[12]. Ushbu markaz BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (ECOSOC)da maxsus maslahatchi maqomiga ega bo'lib, 60 dan ortiq NNTlarni o'z ichiga olgan gender masalalari bo'yicha NNTlar ittifoqini tashkil etgan.

Nihol tashabbus markazi – O'zbekistonda faoliyat yurituvchi nodavlat notijorat tashkilot bo'lib, ayollar va qizlar huquqlarini himoya qilish, gender tenglikni targ'ib etish va zo'rvonlikka qarshi kurashish yo'nalishida ishlaydi. Tashkilot "Equality Now" bilan hamkorlikda Yevropa Ittifoqi moliyalashtirgan uch yillik loyiha doirasida gender tenglikni ta'minlash va jinoiy adolat tizimida ayollar huquqlarini mustahkamlashga qaratilgan faoliyatlarni amalga oshirmoqda.

Shuningdek, O'zbekistonda davlat va nodavlat tashkilotlar xalqaro hamkorlik orqali ayollar huquqlari bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda. "Equality Now" O'zbekistondagi ayollar huquqlari holati bo'yicha BMT Inson huquqlari kengashiga taqdim etilgan hisobotda ham ishtirok etgan. Biroq, mamlakatda gender masalalariga ixtisoslashgan tahliliy markazlar hali shakllanmaganligi ularning xalqaro reytinglarda ishtirokini cheklab turibdi. Bu esa kelajakda maxsus tahliliy markazlar yaratish zaruratini ko'rsatadi.

Umuman, ayollar huquqlarini ta'minlashda davlat va NNTlar hamkorligi barqaror ijtimoiy taraqqiyot uchun muhim omildir. Davlat huquqiy va iqtisodiy asoslarni yaratib bersa, NNTlar jamoatchilik fikrini shakllantirish, muammolarni aniqlash va ularni yechishga ko'maklashadi. O'zaro hamkorlik natijasida qonunchilik va amaliyot uyg'unlashadi, gender tenglik bo'yicha huquqiy madaniyat ortadi, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi faolligi esa yanada kuchayadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, ayollar huquqlarini to'liq ro'yobga chiqarish va jamiyatda gender tenglikka erishish uchun davlat va nodavlat notijorat tashkilotlar o'rtasidagi tizimli va samarali hamkorlikni yanada rivojlantirish zarur.

ADABIYOTLAR

1. <https://www.statsoft.de/en/data-science-applications/tibco-statistica/>.
2. Нариманов Б.А. Ўзбекистонда нодавлат нотижорат ташкilotларининг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш. Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т.: ТДЮУ, 2020. – Б.5.
3. L. Salomon, SW. Sokolowski and R List, Global Civil Society: an overview. (Center for Social Studies, Baltimore 2003). Page 28
4. Miller A. M. Women's human rights NGOs and the treaty bodies: some case studies in using the treaty bodies to protect the human rights of women //The UN Human Rights Treaty System in the 21 Century. – Brill Nijhoff, 2000. – C. 195-207.
5. Clark AM, Friedman EJ, Hochstetler K. The Sovereign Limits of Global Civil Society: A Comparison of NGO Participation in UN World Conferences on the Environment, Human Rights, and Women. World Politics.
6. Ш.Назаров. Конституция ва жамоат бирлашмалари. /Масъул муҳаррир юридик фанлар доктори, профессор А.Х.Саидов. –Тошкент: ТДЮИ, 2012. – 30 б.

7. Narimanov B. Issues of improving administrative procedures for providing public services to nongovernmental non-profit organizations in Uzbekistan // Юридик фанлар ахборотномаси – Вестник юридических наук – Review of law sciences. 03 / 2020. – Б. 42.
8. Фуқаролик жамияти институтлари эркин фаолият юритиши учун қандай ишлар амалга оширилмоқда? <https://adliya.uz/uzb/posts/fuqarolik-jamiyati-institutlari-erkin-faoliyat-yur#!>
9. Б.Нариманов. О'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining tashkiliy-huquqiy mexanizmini takomillashtirish. Yuridik fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Т.:2023.
10. Inagamova M.M. Jahonda ayol huquqlarini ta'minlashda davlat va nodavlat tashkilotlarning shakllanishi // “O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashning dolzarb masalalari: joriy holat va istiqboldagi vazifalar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. – Toshkent, JIDU. 2024. B. 179-184.
11. Inagamova M.M. Xalqaro Mehnat Tashkilotining ishlayotgan erkaklar va ayollar uchun teng munosabatlar va teng imkoniyatlar: oilaviy majburiyatlarga ega xodimlar to'g'risidagi 156-sonli Konvensiyasini O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilishining ayrim jihatlari // O'zMU xabarlari. Т.:2024. 1/8. 93-95 б.
12. Инагамова М.М. Аёллар меҳнати муҳофазаси: халқаро ва миллий тажриба // Ўзбекистон Республикаси ИИВ Малака ошириш институти ахборотномаси №3/2024. 41-45 б.